

## ANTROPOINDIKATORLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i03.019>

**Odinayeva Mohinur**

*Buxoro davlat universiteti*

*Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistratura bitiruvchisi*

*Mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya** Mazkur tezisda antropoindikatorlar va ularning qo‘llanilishi, xususan, Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida ishlatilgan antropoindikatorlar tahlil etilgan. Bunda ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda o‘ziga xosliklariga alohida e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** antroponim, antropoindikator, ichki indikator, tashqi indikator, affiksoidlari, Sadridin Ayniy, uslub, qissa.

**Аннотация** В данной диссертации анализируются антропоиндикаторы и их использование, в частности, антропоиндикаторы, использованные в рассказе Садриддина Айни «Смерть ростовщика». Особое внимание уделено их лексико-семантическим особенностям и особенностям.

**Ключевые слова:** антропоним, антропоиндикатор, внутренний показатель, внешний показатель, аффиксоиды, Садриддин Айний, стиль, рассказ.

**Abstract** This thesis analyzes anthropoindicators and their use, in particular, anthropoindicators used in Sadridin Aini's short story "Death of a Moneylender". Special attention is paid to their lexical-semantic features and peculiarities.

**Key words:** anthroponym, anthropoindicator, internal indicator, external indicator, affixoids, Sadridin Ainy, style, story.

Indikatorlar antroponimlarni tilning lug‘at tarkibida o‘ziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vositadir. Ular kishi ismlari tarkibida kelib uni biror jihatdan xarakterlab, konnotativ ma‘no ifodalaydi. Har bir indikatorni qabul qilgan antroponim shu indikator uchun mikrotekst vazifasini bajaradi.<sup>11</sup>

Indikator atamasi izohiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bu so‘z lotincha “indikator” so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘rsatkich”, “ishora qiluvchi” ma‘nolarini bildiradi. O‘zbek tilshunosligida Z.Do‘simov indikator atamasini ilk bor toponimik indikatorlar sifatida qo‘llagan.

<sup>11</sup> Рашидова М. Лақабларнинг услубий-функционал хусусияти ҳақида. Тил ва адабиёт таълими, 2009, 4. 31-33-бет.

Antropoindikatorlar mohiyatan 2 ga bo'linadi:

1. Ichki indikatorlar
2. Tashqi indikatorlar

Ichki indikatorlar deganda antroponimdagı antroponimik belgisi uning o'z ichki imkoniyatidan tushunilib turishi nazarda tutiladi. Chunonchi antroponomiklarning bosh harf bilan yozilishi, ma'lum bir qurshovda uchrashi va shu nutqiy qurshovda o'zaro ichki guruhlarğa xoslanishi (Ra'no, Malika –ayollar; Qo'chqor, Bolta –erkaklar ismlari kabi) anglashiladi.

Xuddi shuningdek, antroponimlar tarkibidagi turli xil indikatorlar kitobxonga hissiy ta'sir qilish, unga estetik zavq berish xususiyatiga ham ega. Bu vositalar orqali kitobxon asar qahramonlarning jamiyatidagi o'rnini, ruhiy holatini, obraz mohiyatini yanada yorqinroq tushunadi. Indikatorlar antroponimlarni ichki tarkibiy qismlarini, ichki tizimchalarini ajratishda va belgilashda eng muhim omildir.

Bizningcha, indikatorlarni ismlarga qo'shishdan maqsad, birinchidan, ismga konotativ ma'no berish,

Ikkinchidan, ism egasining qaysidir xarakter, xususiyatini ochib berish; Uchinchidan, turdosh otlardan atoqli ot hosil qilishdir.

**Bek.** Bu indikator hurmat, erkalash ma'nolarini ifodalash uchun ismlarga qo'shiladi: Amirbek, Dilshodbek.

Bundan tashqari, turdosh otlardan atoqli ot yasash vazifasini ham bajaradi: Elbek, Bektosh.

**Boy** antropoindikatorı subyektiv baho shaklini hosil qilish uchun ishlatiladi:

Boy indikatoriga E. Begmatov «O'zbek ismlari» kitobida quyidagicha izoh beradi: «Boy – asli boylar, badavlatlar avlodiga mansubli; boy-badavlat, hukumron, janob.

Ism tarkibida bolaga to'qlik, farovonlik tilash, hurmat, ehtirom ma'nolarida keladi. Ba'zan farzandimiz ko'paysin, serfarzand bo'laylik ma'nosini ham ifodalaydi.»

**Xon, oy** indikatorlari suyish, erkalash, go'zal, chiroyli ma'nolarini ifodalaydi: Nigoraxon, Nasibaoy, Shirinoy.

Oy indikatorı kengayib oyim shaklida ham kelishi mumkin. Bu vaqtda ulug'lash, ehtirom ma'nolari anglashiladi: Ulug'oyim, Hakimaoyim.

**Jon.** Bu so'z o'z mustaqil ma'nosi va erkalash, suyish, hurmat kabi ma'nolari bilan turdosh otlarga qo'shilib, uni atoqli otga aylantirishga xizmat qiladi: Bobojon, Mullajon, Feruzajon.

Ma'lumki, antroponimik indikatorlar kishi nomlari bilan birgalikda kelib, uni xarakterini yoritishda hamda konnotativ ma'no anglashda xizmat qiladi. "Sudxo'ring o'limi" asarida ham antroponimik indikatorlar qo'llangan nomlar mavjud. Bu kabi nomlar badiiy tasvirda muallifning personajga yoki personajning personajga bo'lgan munosabatini ko'rsatishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Ushbu indikatorlar orqali

personajlarning salbiy yoki ijobiy qahramon ekanliklari yoki ularning qanday xarakter-xususiyatlari borligi haqida ma'lumot beradi. Xuddi shuningdek, antroponimlar tarkibidagi turli xil indikatorlar kitobxonga hissiy ta'sir qilish, unga estetik zavq berish xususiyatiga ham ega. Bu vositalar orqali kitobxon asar qahramonlarining jamiyatdagi o'rnini, ruhiy holatini, obraz mohiyatini yanada yorqinroq tushunadi. Asarda uchraydigan antroponimik indikatorlar sirasiga *-xon*, *-jon* kabi qo'shimchalarni hamda bir necha o'rinda qo'llangan *aka* (Rahim aka, Qori aka) so'zini ko'rsatish mumkin.

U bu tayoqlardan eng uzun tayoqni olib, bir chekkadan bolalarning boshlariga qarab ura boshladi, bolalar o'zaro talashishni qo'yib, hammalari yig'iga tushdilar: «**Domlajon**, tavba qildim... yedim», sadolari hamma bolalarning og'izlaridan barobar chiqib ko'kka ko'tarilar edi (210).

Shunday qiling, **jon uka!** Ilohim bolalaringizning to'yini ko'ring! (18)

Jon Qori **aka**, erta-indin boring, samovarchi-ning gardanimdagi qarzi og'irlashib ketmasin, – deb dehqon o'rnidan qo'zg'aldi (78).

Xayriyatki, ishtahadan qolgan ekansiz, Qori **aka**, bo'lmasa butun dunyoni yeb qo'yar edingiz (20).

Rahim **aka** ayolmand odam, unga sergo'sht va seryog'gina qilib bir tovoq osh bering (37).

Qori **akam** bo'lsin, yo boshqa shaharlik boy bo'lsin, shahardan uzoq bo'lgan bu qishloqqa kelib dehqonchilik va mulkdorlik qila olmaydi (89).

Lekin sening boshingga tushgan janjalga bo'lgan xarajatni men yoki Arbob Ro'zi **akam**, yo bo'lmasa boshqa birov berarmidi? (100)

-Hamroh **akamning** shuncha xonavayron bo'lishiga sabab bo'lgan yo'qolgan To'ramurod keldi, – dedi (105).

Shu vaqtda Qori Ishkambaning bu holatidan **Bibi** Dahboshi degan bir jinni xotinning voqeasi esimga tushdi... (180)

Bibi- yuqori sinf, aslzodalar avlodiga mansub. Bu so'z o'tmishda mashhur turkey ayollarning faxriy unvoni bo'lgan.<sup>12</sup>

Men qozonfurush Nasrullo**boyga** (odamlar uning nomini qisqartirib «Nasrulloyi Deg» der edilar) o'n yil xizmat qildim (30).

Shu **mirza** Abdulla qora savdogarlar pulga juda muhtoj bo'lgan bir paytda, ya'ni qorako'l terisi mavsumida Ishkambani chaqirib, xo'jayinining nomidan o'n besh ming so'm so'radi (173).

Shu o'rinda mirza so'zining ma'nosiga e'tibor qaratamiz:

<sup>12</sup>E.A.Begmatov. O'zbek ismlari ma'nosi.- Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. –B.58.

Mirza- ziyolilar, qalam ahllari, kotib, sarkotib, munshiy ma'nosini anglatgan. Xalq tilida o'qimishli, savodxon ma'nolarini anglatgan.<sup>13</sup>

Jinnilarning joyi savdixonalarda emas, **Xo'ja** O'boniy eshonning uyida, – deb o'rnidan turdi va Qori Ishkambani eshik tomonga itardi (176).

Gap **Amir** Muzaffarning hisorliklar bilan urushi ustida to'xtadi (32).

Men **Qori** Ishkamba ham bu vaqt o'z uyiga qaytgan bo'lsa kerak deb o'yladim-da, uning hovlisiga bormoqchi bo'lib yo'lga tushdim (39).

Qori- sog' ulg'ayib Qur'onni yoddan qiroat qiluvchi (qori) bo'lsin yoki mrhum qori bobosining ismi bilan nomlangan bola.<sup>14</sup>

Sangsabz qishlog'ining oqsoqoli **Arbob** Ro'zi o'z yeri yonidagi yerlarimni qo'lga kirgizish uchun ustimdan bir janjal chiqardi (74).

Lekin do'st-dushman orqa-oldingda **To'ramurod**ni Hamrohraq o'ldirgan deb gap tarqatdilar (99).

O'zbek tilidagi antroponimlar tizimida antropoindikatorlar muhim lingvistik hodisa sifatida alohida o'rin egallaydi. Ular shaxs nomining leksik va ma'noviy tuzilishini boyitib, unga qo'shimcha konnotativ ma'no yuklaydi. Antropoindikatorlar yordamida ism egasining ijtimoiy mavqeyi, jinsiy mansubligi, yoshiga yoki muallifning personajga bo'lgan subyektiv munosabatiga ishora qilinadi.

Badiiy adabiyotda esa antropoindikatorlar obrazlarning xarakterini ochish, ularning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish hamda asarga hissiy-estetik ta'sir berish vositasi sifatida ishlatiladi. Shu boisdan antropoindikatorlarni lingvistik va uslubiy jihatdan o'rganish o'zbek antroponimikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida Sadriddin Ayniyning mashhur "Sudxo'ring o'limi" qissasini tahlil qildik, asardagi antroponimik birliklarga ham alohida e'tibor qaratdik. Shuningdek, "Sudxo'ring o'limi" asarida antroponimik indikatorlar qo'llangan nomlarni ham o'rgandik. Bu kabi nomlar badiiy tasvirda muallifning personajga yoki personajning personajga bo'lgan munosabatini ko'rsatishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayniy S. Sudxo'ring o'limi. Qissa.-Toshkent, O'qituvchi, 1982.
2. Begmatov E. O'zbek ismlari.-Toshkent: O'qituvchi, 1998.
3. Рашидова М. Лақабларнинг услубий-функционал хусусияти хақида. Тил ва адабиёт таълими, 2009, 4. 31-33-бет.

<sup>13</sup> E.A.Begmatov. O'zbek ismlari ma'nosi.- Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. –B.62.

<sup>14</sup> E.A.Begmatov. O'zbek ismlari ma'nosi.- Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. –B.66.



4. Қиличев Э.Ўзбек тили ономастикаси. Т.:2004.
5. Qosimova Z. O'zbek antroponimlarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. // Til va adabiyot ta'limi, 2018. -5. – B.22-27.

